



XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 2 - iyul

VI-51-70-4-58-K/22

Qamashi tuman hokimligi

Qamashi tumanida 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-dekabrda PQ–43-son qarorining 1.a.2-bandiga muvofiq, “Vazirliklar, idoralar, Qopaqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tuman (shahar) hokimlari hamda sektor rahbarlari bilan birgalikda 1-aprelga qadar joylarda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasining holatini yangi loyihalarni amalga oshirish zarurati va ularning joylashuvini, shuningdek, ushbu masalalar bo‘yicha keng jamoatchilik fikrini o‘rganish” belgilangan.

Mazkur topshiriqni tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, tumandagi ta‘mirtalab holatga kelib qolgan ijtimoiy soha obyektlari bo‘yicha berilgan taklif asosida tuman ishchi guruhi tomonidan keng jamoatchilik asosida o‘rganib chiqildi.

O‘rganish jarayonida, tumandagi umumta‘lim maktablaridan 19 ta, maktabgacha ta‘lim tashkilotidan 7 ta, sog‘liqni saqlashdan 6 ta muassasalaridan jami 32 ta obyektlar ishchi guruhi tomonidan joyida o‘rganib chiqildi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan obyektlarni 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga kiritish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab

chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-dekabrda PQ–43-son qarorining 1.a.2-bandiga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi hamda boshqa davlat dasturlari ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2021-yil 10-dekabrda PQ–43-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qamashi tuman hokimining 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturini shakllantirish yuzasidan bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturiga Qamashi tuman hududidan kiritilishi rejalashtirilgan ijtimoiy soha obyektlari manzilli ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, tuman qurilish bo‘limi va manfaatdor ijtimoiy soha va aloqador tashkilotlar rahbarlariga:

-loyihalarni dasturga kiritish bo‘yicha birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish hamda viloyat hokimligiga va viloyat shtabiga taqdim etish;

-amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida xalq deputatlari Qamashi tuman Kengashining navbatdagi sessiyalarida hisobot berib borish vazifalari yuklansin.

5. Tuman hokimining matbuot xizmatiga 2023-yilda investitsiya dasturiga kiritilishi rejalashtirilgan ijtimoiy soha obyektlari ustidan deputatlik va jamoatchilik nazorati natijalari yuzasidan o‘tkaziladigan sessiyalarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Q.Xaydarovga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jalik va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Nomozov zimmasiga

yuklansin.

Kengash raisi



B.Tog‘ayev

Xalq deputatlari Qamashi tuman
Kengashining
2022 yil 2 iyuldagi
VI-51-70-4-58-K/22-son qaroriga
1-ilova

**2023-yilda ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish
dasturiga Qamashi tuman hududidan kiritilishi rejalashtirilgan
ijtimoiy soha obektlari manzilli
RO‘YXATI**

№	Ijtimoiy soxa obyektlarining nomlanishi	Loyiha quvvati	Yangi qurilish va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirilishi
1-sektor			
Maktab			
1	Qamashi tumani Uzun MFY 64-maktab	336	Rekonstruksiya qilish
2	Qamashi tumani Yuksalish MFY 67-maktab	650	Rekonstruksiya qilish
3	Qamashi tumani Qishliq MFY 70-maktab	1104	Rekonstruksiya qilish
4	Qamashi tumani Qo‘shkapa MFY 81-maktab	280	Rekonstruksiya qilish
MTM			
5	Qamashi tumani Elobod MFY	150	Yangi qurilish
6	Qamashi tumani 13-DMTT Rabod MFY	120	Rekonstruksiya qilish
Sog‘liqni saqlash			
7	Qamashi TTB (120 o‘rin tug‘riq kompleksini rekonstruksiya qilish)	120	Yangi qurilish
8	Qamashi TTB 50 qatnovli 48-Op ga qarashli "Chim" filialini rekonstruksiya qilish.	50	Yangi qurilish
9	Qamashi TTB 50 qatnovli 51-son Qishliq OP Qiziltepa filiali binosini rekonstruksiya qilish	50	Yangi qurilish
10	Qamashi TTB 100 qatnovli "Oqrabot" 48-son OPni rekonstruksiya qilish	100	Rekonstruksiya qilish
2-sektor			
Maktab			
1.	Qamashi tumani Ko‘kbuloq MFY 8-maktab	376	Rekonstruksiya qilish
2.	Qamashi tumani Boybo‘ri MFY 27-maktab	496	Rekonstruksiya qilish
3.	Qamashi tumani Qovchin MFY 47-maktab	581	Rekonstruksiya qilish

4.	Qamashi tumani Ko'kbuloq MFY 57-maktab	340	Rekonstruksiya qilish
5.	Qamashi tumani Qorasuv MFY 72-maktab	616	Rekonstruksiya qilish
6.	Qamashi tumani To'qboy MFY 73-maktab	650	Rekonstruksiya qilish
7.	Qamashi tumani O'zbekiston MFY 9-ixtisoslashgan Davlat umumta'lim maktabi	660	Yangi qurilish
8.	Qamashi tumani Qovchin MFY 38-maktab	422	Mukammal ta'mir
MTM			
9	Qamashi tumani Samarqand MFY 2-DMTT	180	Rekonstruksiya qilish
3-sektor			
Maktab			
1	Qamashi tumani Istikbol MFY 2-maktab	1010	Rekonstruksiya qilish
2	Qamashi tumani Bog'obod MFY 9-maktab	410	Rekonstruksiya qilish
3	Qamashi tumani Kattaura MFY 85-maktab		Rekonstruksiya qilish
4	Qamashi tumani Navoiy MFY 1-maktab		Mukammal ta'mir
MTM			
5	Qamashi tumani Jonbo'z MFY	150	Yangi qurilish
6	Qamashi tumani O'rtadara MFY	150	Yangi qurilish
7	Qamashi tumani 6-DMTT Navoiy MFY	360	Rekonstruksiya qilish
Sog'liqni saqlash			
8	Qamashi TTB 50 qatnovli 48-Op ga qarashli "Qoratepa" filialini rekonstruksiya qilish	50	Yangi qurilish
9	Qamashi TTBga qarashli Guliston OSHP	100	Rekonstruksiya qilish
4-sektor			
Maktab			
1	Qamashi tumani Badaxshon MFY 80-maktab	392	Rekonstruksiya qilish
2	Qamashi tumani Ibn-Sino MFY 83-maktab	1140	Rekonstruksiya qilish
3	Qamashi tumani Mang'it MFY 17-maktab	1176	Mukammal ta'mir
MTM			
4	Qamashi tumani Dovud MFY	150	Yangi qurilish